



ILG'OR KASBIY MAHORAT TEXNIKUMLARI VA YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLAR BO'YICHA O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Moloshov Yusufali Imombayevich

Namangan ilg'or kasbiy mahorat texnikumi maxsus fan o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18309549>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 11th January 2026

Published: 20th January 2026

KEYWORDS

kasbiy ta'lim, ilg'or kasbiy mahorat texnikumi, zamonaviy kasblar, dual ta'lim, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori.

ABSTRACT

Maqolada ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarining ta'lim tizimidagi o'rni, ularning yoshlarni zamonaviy va raqobatbardosh kasblarga tayyorlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy kasblar bo'yicha o'qitishni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari, o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda dual ta'lim tizimining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish

Bugungi globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislariga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni zamonaviy kasblar va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari yoshlarni bozor talablariga mos kasblarga o'qitish, ularning bandligini ta'minlash va iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday ta'kidlandi:

Hozirgi iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo'lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmaslik lozim. Agar biz sanoatda – elektronika va elektrotexnika, biokimyoviy va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish; xizmatlarda – IT, sun'iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni ko'paytirish; qishloq xo'jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg'or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo'llash; iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun "yashil" energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish; ta'lim va tibbiyotda – sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor.

Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish – kelgusi yil uchun dasturimizning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidir.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarib bormoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Bu jarayonlar bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Sanoatda – avtomatlashgan liniyalar, agrar sohada – aqlli texnologiyalar, transportda – intellektual boshqaruv kundalik hodisaga aylanib bormoqda.

Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur.

Mutaxassislarining fikricha, bolada biror-bir kasbga qiziqish 7-sinfdan boshlanib, qaysi kasbni tanlashi 9-sinfdan to'liq ma'lum bo'ladi. Shu bois 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimini joriy qilamiz. Bunda oliygohlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi.

Yaqinda texnikumlarga zamonaviy qiyofa va yangicha muhit olib kirish bo'yicha besh yillik dasturni tasdiqladik.

Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Buning uchun, 2026-yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to'liq ta'mirlab, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boramiz. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazamiz. Yuqoridagi murojaatnomadan kelib chiqib To'raqo'rg'on Agrotexnologiyalari texnikumi Namangan ilg'or kasbiy mahorat texnikumiga aylantirildi.

Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarining mohiyati va vazifalari

Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari — bu zamonaviy moddiy-texnik baza, innovatsion o'quv dasturlari va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim shakllari asosida faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalaridir. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish;
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish;
- zamonaviy texnologiyalar va uskunalar bilan ishlash malakasini shakllantirish;
- o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalar va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Yoshlarni zamonaviy kasblar bo'yicha o'qitishni tashkil etish

Zamonaviy kasblar bo'yicha ta'limni samarali tashkil etish bir qator pedagogik va tashkiliy yondashuvlarni talab etadi. Jumladan:

O'quv dasturlarini yangilash-O'quv reja va dasturlarni ishlab chiqishda mehnat bozori ehtiyojlari, ish beruvchilar talablari va xalqaro standartlar hisobga olinishi zarur. IT, avtomatlashtirish, logistika, agrotexnologiya, xizmat ko'rsatish va yashil iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha mutaxassisliklar muhim ahamiyatga ega.

Dual ta'lim tizimini joriy etish Dual ta'lim — bu o'quvchining ta'lim muassasasida nazariy bilim olib, korxonada va tashkilotlarda amaliyot o'tashini nazarda tutuvchi tizimdir. Ushbu

yondashuv bitiruvchilarning real ish sharoitiga tez moslashuvi va ish o'rnini yo'qotmasligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-dekabrdagi kasbiy ta'lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi direktorining 2026-yil yanvardagi 1-son buyrug'i hamda 2026-2027-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi ijrosini ta'minlash maqsadida Namangan ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Iftixor kiyim sanoat" MChJ o'rtasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Mazkur hamkorlik Namangan ilg'or kasbiy mahorat texnikumi direktori T. Jololov hamda "Iftixor kiyim sanoat" MChJ direktori A.K. Dobryxga boshchiligida amalga oshirilib, uning doirasida texnikum va MChJ o'rtasida dual ta'limni tashkil etish, o'quvchilarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan ta'minlash hamda malakali kadrlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Ushbu hamkorlik kasbga yo'naltirish va bandlikni ta'minlashda Dual ta'lim shaklini qulaylik tomonlarini har tomonlama ochib berdi. Hozirda texnikumda "Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Agranomiya", "Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish", "Axborot xavfsizligi" yo'nalishlarida Dual ta'lim shaklida ta'lim berilmoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish-Ta'lim jarayonida elektron platformalar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ish beruvchilar bilan hamkorlikning ahamiyati-Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ish beruvchilar bilan o'zaro hamkorlikka bog'liq. Korxonalar bilan hamkorlikda:

- o'quv dasturlari ishlab chiqiladi;
- ishlab chiqarish amaliyoti tashkil etiladi;
- bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yiladi. Bu esa ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlaydi.

Ta'lim sifatini oshirish va kadrlar raqobatbardoshligi-Kasbiy ta'lim sifatini oshirish uchun pedagog kadrlarning malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy o'qitish metodlarini joriy etish va baholash tizimini takomillashtirish muhimdir. Natijada bitiruvchilar nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo'lib yetishadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, dual ta'lim tizimi va ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali kasbiy ta'lim sifatini oshirish mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy rivoji va yoshlar bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Namangan ilg'or kasbiy mahorat texnikumi yangi O'zbekistonning kelajagi uchun zamonaviy kasb mahoratlarini egallagan yoshlarni yetishtirib chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

2. Kasbiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy manbalar.
4. Mehnat bozori va kadrlar tayyorlashga oid tahliliy hisobotlar.



INNOVATIVE
ACADEMY